

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Yakubov Akmal

SOVET HOKIMIYATINING TURKISTONDA SOVET RESPUBLIKALARINI BARPO ETISH BO'YICHA SIYOSATI	09-21
--	-------

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

МЕЖДУ ДИПЛОМАТИЕЙ И ИМПЕРСКОЙ СТРАТЕГИЕЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ МУХАММАДА РАХИМХАНА I (1806–1825 гг.)	22-31
--	-------

Gadoyev Dadaxon Xayrulloevich

DEGGARON MASJIDINING SOVET O'LKASHUNOSLARI TOMONIDAN O'RGANILISHI	32-47
---	-------

Dadajonov Tursunboy Abdusamatovich

QO'QON XONLIGI DAVRIDA HARBIY KUCHLARNING QUROL-ASLAHALAR BILAN TA'MINLANISHI VA MODDIY BAZASINING RIVOJLANISH JARAYONI	48-53
--	-------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Umurzaqova Umida Nosirjanovna, Gafurjonov Jamshidbek Furkat o'g'li

SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI IQTISODIY-EKOLOGIK OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI BO'YICHA JAHON TAJRIBASI TAHLILI	54-58
--	-------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Yunusova Manzuraxon Pazliddinovna

O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINI FUQAROLIK JAMIYATINING MUHIM INSTITUTI SIFATIDA ISLOH ETISH JARAYONI	59-68
--	-------

Karimov Xurshid Abdumannabovich

AN'ANA VA AXLOQIY UNIVERSALIZM – FALSAFIY KOMPARATIVISTIKA KONTEKSTIDA	69-74
---	-------

Egamberdiyev Baxriddin Baxodir o'g'li

O'ZBEKISTONDA MAHALLIY ODATLAR VA MAROSIMLARNING SHAKLLANISHI VA ULARNING FALSAFIY-TARIXIY MOHIYATI.....	75-82
---	-------

Norqulov Shahzod Shuhrat o'g'li

IJTIMOIIY REKLAMA TUSHUNCHASI: MOHIYAT VA FUNKSIYALAR	83-87
---	-------

Beshimov Xamidjon Sayidovich

FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA INSON QADRINI BELGILASH MEZONLARI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYATDA INSON QADRINI TA'MINLASHDA KASABA UYUSHMALARINING ROLI.....	88-96
--	-------

Нишонов Сарвар Жасур угли

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ СМЫСЛООБРАЗУЮЩИХ КАТЕГОРИЙ СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ЛИЧНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ХУСЕЙНА ВАИЗА КАШИФИ)..	97-105
---	--------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Uzakova Go'zal Sharipovna

SHAHARLARDA ATROF MUHIT MASALALARINI HAL ETISHDA JAMOATCHILIK
ISHTIROKINI TA'MINLASHNING HUQUQIY MASALALARI..... 106-112

Eshimbetov G'ulomjon Sultonbayevich

ICHKI ISHLAR ORGANLARINING KADRLAR BILAN ISHLASH XIZMATLARI
FAOLIYATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI 113-122

Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich

JAZONI IJRO ETISH MUASSASASIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY
REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH TUSHUNCHASI
HAMDA IJTIMOY ZARURATI 123-132

Марданов Жасурбек Отабек угли

УГОЛОВНОЕ ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ВОВЛЕЧЕНИЯ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНЕГО В
АНТИСОЦИАЛЬНОЕ ПОВЕДЕНИЕ 133-138

Mamadjonov Temurali Barotjon o'g'li

FUQARONI BEDARAK YO'QOLGAN DEB TOPISH VA VAFOT ETGAN
DEB E'LOH QILISHNING AYRIM MASALALARI 139-143

Jumumbetov Rasul Jengizbayevich

GEOGRAFIK KO'RSATKICHLARDAN FOYDALANISH HUQUQIY
TA'MINLASH MUAMMOLARI 144-150

Suyunov Bobir Bahodirovich,

RAQAMLI JAMIYATDA TALON-TAROJLIK:
KIBER-XAVFLAR VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI..... 151-155

Kdirbaeva Altinay Maksetbaevna

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA XOTIN-QIZLAR XIZMAT O'TASH TARTIBINI
BELGILASHGA DOIR RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASINING ILMIY TAHLILI 156-163

Abduhoshimov Ismoil Abdug'ani o'g'li

KORRUPSION JINOYATLARNING O'ZIGA XOS TAHLILI..... 164-168

Хошимова Юлдузхон Олимжоновна

СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРИЗНАНИЯ ОБЩЕИЗВЕСТНЫХ
ТОВАРНЫХ ЗНАКОВ 169-175

Abdugaffarov Davronbek Dilshod ugli

ALIGNING UZBEKISTAN'S PRIVATE INTERNATIONAL LAW WITH WTO PRINCIPLES:
THE ROLE OF CHOICE OF LAW IN GATS IMPLEMENTATION 176-180

Aripov Abid Adilovich

O'ZBEKISTONDA CHET EL FUQAROSI TUSHUNCHASI VA HUQUQIY MAQOMI..... 181-189

Tolibbayeva Malika Ulmasjon qizi

ADVOKATNING IQTISODIY VA FUQAROLIK PROTSESSIDAGI ISHTIROKI:
XORIJIY VA MILLIY QONUNCHILIK TAHLILI..... 190-197

Нормуродова Азиза Азимжон кизи

СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ В РЕСПУБЛИКЕ
УЗБЕКИСТАН: ОЦЕНКА ДЕЙСТВУЮЩЕГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА И ПУТИ ЕГО
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ 198-204

Abdullayeva Parvina Baxrillovna

RAQAMLI PLATFORMALAR BILAN BOG'LIQ TUSHUNCHALAR TALQINI 205-212

Nurmatov Jasur

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINING RETROSPEKTIV TAHLILI	213-222
---	---------

Шадуева Сайёра Арифовна

ОСОБЕННОСТИ РАССМОТРЕНИЯ ДЕЛ О ПРИМЕНЕНИИ МЕР ПРАВОВОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ К СУБЪЕКТАМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	223-233
--	---------

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Umarov Bahrom Norboyevich

DARSLIK MANTLARI VA KOMPETENSIYA PARADIGMASI: NISBAT MUNOSABAT VA O'ZARO BOG'LIKLIK ("ONA TILI DARSLIGI MISOLIDA").....	234-241
--	---------

Qurbonova Barchinoy Mirzahamdammovna

TOPOGRAFIK KARTALARGA OID TUSHUNCHALAR, ENG MUHIM SHARTLI BELGILAR VA LANDSHAFT DIZAYNIDA ICHKI FAZOVIIY MUHIT, HAJMIY SHAKL VA TEVARAK-ATROF	242-246
---	---------

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

QALAMTASVIRDA GEOMETRIK SHAKLLARDAN TASHKIL TOPGAN NATYURMORT HAMDA TEXNIK VA SAN'AT FANLARINI TURLI FANLAR BILAN INTEGRATIV HAMDA SINERGETIK O'QITISHNI NAZARIY YECHIMLARI	247-251
---	---------

Temple Chimuany Odimegwu

REVIEW ON FILLER EFFECT OF VARIOUS NONREACTIVE MATERIALS IN CONCRETE	252-265
---	---------

Arustamyan Yana Yuryevna, Toshpo'latov Omonulloxon Ulmas o'g'li

O'ZBEKISTON XUSUSIIY UNIVERSITETLARIDA TA'LIMNI BOSHQARISHNING HOZIRGI HOLATI, STRATEGIK YECHIMLARI VA ISTIQBOLDAGI RIVOJLANISH SSENARIYLARI	266-271
--	---------

Berdiyeva Nilufar Berdiyeva qizi

INNOVATSION YONDASHUVNING BO'LAJAK PEDAGOG VA TARBIYACHILARNING IJODIIY KOMPETENSIYASIGA TA'SIRI	272-277
---	---------

Otamuratov Maqsudbek Shonazarovich

O'ZBEKISTON OLIY TA'LIMIDA KREDIT-MODUL TIZIMINING PEDAGOGIK ASOSLARI VA UNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI	278-283
---	---------

Kurbonova Shoxsanam

TASVIRIIY SAN'AT FANLARINI O'QITISHDA O'QUVCHILAR O'QUV-IJODIIY FAOLIYATINI INTEGRATIV RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	284-289
--	---------

Toxirov Shaxzod Toxirovich

IJTIMOIIY INTELEKTNING TARKIBIIY QISMLARI VA UNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI.....	290-294
--	---------

Raximjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna

GLOBAL KONTEKSTLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYA UCHUN TANQIDIIY FIKRLASH	295-300
---	---------

Received: 16 December 2025

Accepted: 1 January 2026

Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

PROSPECTS FOR IMPROVING THE MANAGEMENT OF PERSONNEL SERVICES IN INTERNAL AFFAIRS BODIES

Eshimbetov G'ulomjon Sultonbayevich

Deputy Minister of Internal Affairs of the Republic of Karakalpakstan

Abstract. This article analyzes the prospects for improving the management of personnel services in internal affairs bodies. The study focuses on issues of effective organization of personnel policy, recruitment, training and retraining of employees, enhancing their professional potential, and developing mechanisms for evaluating service activities. Additionally, it highlights the role of personnel services in ensuring public safety in the context of modern threats and digitalization processes. Based on foreign experience and scientific approaches, practical proposals and recommendations are developed to improve the system of personnel management in internal affairs bodies.

Keywords: internal affairs bodies, personnel services, personnel policy, service activity management, professional training, retraining, evaluation system, public safety.

ICHKI ISHLAR ORGANLARINING KADRLAR BILAN ISHLASH XIZMATLARI FAOLIYATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Eshimbetov G'ulomjon Sultonbayevich

Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vaziri o'rinbosari

E-mail: info@qriiv.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada ichki ishlar organlarining kadrlar bilan ishlash xizmatlari faoliyatini boshqarishni takomillashtirishning istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqotda kadrlar siyosatini samarali tashkil etish, xizmatga qabul qilish, xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning kasbiy salohiyatini oshirish hamda xizmat faoliyatini baholash mexanizmlarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, zamonaviy tahdidlar, raqamlashtirish jarayonlari va jamoat xavfsizligini ta'minlashda kadrlar bilan ishlash xizmatlarining o'zni yoritib beriladi. Xorijiy tajriba va ilmiy yondashuvlar asosida ichki ishlar organlarida kadrlar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: ichki ishlar organlari, kadrlar bilan ishlash xizmatlari, kadrlar siyosati, xizmat faoliyatini boshqarish, kasbiy tayyorgarlik, qayta tayyorlash, baholash tizimi, jamoat xavfsizligi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N13>

Kirish. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 2-moddasida, davlat idoralari xalq manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari, jamiyat va fuqarolar oldida mas'ulligi mustahkamlab qo'yilgan[1]. Ichki ishlar organlari davlatning huquqni muhofaza qilish funksiyasini amalga oshiruvchi asosiy davlat organlaridan biri hisoblanib, uning asosiy vazifalari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdan, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlashdan, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasidan iborat[2].

Aholining tinch va osoyishta hayot kechirishini ta'minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarlikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash masalalari Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan davlat siyosatida eng muhim va ustuvor o'rin egallagan. Darhaqiqat, bu masala bugun yurtimizda barcha ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashning eng asosiy sharti va garovidir. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari tomonidan ichki ishlar organlari tizimida tub islohotlar qilish, uning faoliyatini yangi bosqichga ko'tarishdek g'oyat murakkab vazifa doimiy ravishda kun tartibiga qo'yib kelinmoqda.

Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirish hamda mamlakatimizning tinchligi va osoyishtaligiga bo'lgan har qanday tahdidlarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, shuningdek, zamon talablaridan kelib chiqib, ichki ishlar organlarining kadrlar salohiyatini oshirish bugungi davrning asosiy talabidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. O'tgan davr mobaynida ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ichki ishlar organlarining mahallalarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun tashkil etilgan quyi bo'g'inini rivojlantirish va mustahkamlash bo'yicha salmoqli ishlar qilindi.

Harakatlar strategiyasiga muvofiq mamlakatda va uning ma'muriy-hududiy birliklarida jamoat tartibi va xavfsizligini samarali ta'minlash maqsadida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, ichki ishlar organlari tizimini tubdan isloh qilishga oid 100 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, ichki ishlar organlari samarali faoliyat olib borishi uchun bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar imzoladi. Buning yaqqol misoli sifatida 2016-yil 16-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonuni[3] qabul qilindi.

Muhokama. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli va samarali tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi PQ-5050-son qarori bilan "Ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiyasi" tasdiqlandi.

Konsepsiya talablarini amalga oshirishda quyidagilar asosiy ustuvor vazifalar etib belgilandi:

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni milliy va xalqaro huquqiy me'yorlar asosida samarali tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish;

- xalqimizning boy madaniyati, tarixiy qadriyatlari va an'alariga asoslangan dunyoqarashni shakllantirish;

- kasb burchini bajarishda davlat ramzlari bilan faxrlanish, qasamyodga sadoqat va qonunchilikka qat'iy rioya qilish tuyg'ularini chuqur singdirish orqali xodimlarga xalqning hurmati va ishonchini oshirish;

- mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning mazmun-mohiyatini xodimlarga tizimli tushuntirib borish;

- xodimlarda dunyoda ro'y berayotgan globalashuv jarayonlariga faol hayotiy pozitsiya va ongli munosabatni shakllantirish;

- xodimlarning estetik tarbiyasini takomillashtirish, madaniyat va san'atning turli sohalariga qiziqishlarini oshirish;

- adabiyot, kino, teatr va tasviriy san'at imkoniyatlaridan tizimli asosda keng foydalanish;
- xodimlarning ichki va tashqi mafkuraviy tahdidlarga, korrupsiyaga qarshi immunitetini mustahkamlash va ichki ishlar organlarining ijobiy imijini shakllantirish;
- fuqarolik jamiyati institutlari, jamoat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikni rivojlantirish.

Ichki ishlar organlari tashkil etilganining 30-yilligi hamda 25-oktyabr – ichki ishlar organlari xodimlari kuni bayrami munosabati bilan Prezidentimiz soha xodimlari va faxriylariga yo'llagan bayram tabrigida ichki ishlar organlarida kadrlar tayyorlash yo'nalishiga ham alohida to'xtalib o'tdilar. Jumladan, "mutaxassislar tayyorlashning mutlaqo yangi tizimi yo'lga qo'yilib, xodimlarning malakasiga qarab xizmat bo'yicha o'sishini ta'minlash, shuningdek, rahbarlarning professional salohiyatini oshirish borasida tizimli choralar ko'rilmogda. Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bakalavriat va magistraturani o'z ichiga oladigan ikki bosqichli zamonaviy oliy ta'lim tizimi, o'quv jarayoniga nazariya bilan amaliyot uyg'unligini ta'minlash uchun yangi ta'lim mexanizmlari joriy qilindi"[4].

Shuningdek, ichki ishlar organlari tizimida kadrlar salohiyatini oshirish, yangilikka intiluvchan va zamonaviy fikrlaydigan xodimlarni sohaga tayyorlash maqsadida "Temurbeklar maktabi" va ixtisoslashgan maktab-internat hamda barcha hududlarda akademik litseylar ish boshladi. Hozirgi zamon talabidan kelib chiqqan holda, xavfsiz turizmni ta'minlash, probatsiya, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishga ixtisoslashgan yangi bo'linmalar faoliyati yo'lga qo'yildi va bu sohalarga malakali yetuk xodimlarni tayyorlash bugungi kunda asosiy vazifalardan biridir.

Davlatimiz rahbari tomonidan berilgan e'tibor samarasida ta'lim sohasida juda ko'p ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Qator xorij mamlakatlari bilan ilmiy tajriba almashilib, 40 ga yaqin davlatlar ishtirokida muvofiqlashtiruvchi kengashlar tuzildi, ikki tomonlama hamkorlik o'rnatildi. Bugungi kunda xodimlarni o'qitish sohasida hamkorlikni mustahkamlash yo'lida jahonning 29 ta davlatining huquq-tartibot idoralari bilan ikki tomonlama xalqaro kelishuvlarga muvofiq amaliy ishlar olib borilmoqda.

Prezidentimiz ichki ishlar organlariga intellektual salohiyatli, professional kadrlar tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda[5].

Bugun hayotimizning barcha jabhalariga yangi texnologiyalar kirib kelmoqda va bu xodimlardan har kuni o'z ustida ishlashni, bilimni oshirishni talab etadi. Albatta, xalq manfaatlari yo'lida xizmat qilayotgan har bir xodim, avvalo, o'z bilimi, ma'naviy-axloqiy sifatlari va dunyoqarashi kengligi bilan ajralib turishi kerak.

Tan olib aytish kerak, islohotlar sur'atiga va yangicha ish uslubiga moslasha olmayotgan, hamon eskicha fikrlaydigan xodimlar ham uchrab turibdi. Ayrim xodimlarning noqonuniy xatti-harakatlari odamlarning asosli noroziliklariga ham sabab bo'layotgan holatlar bor. Bunday holatlarning barchasini chuqur o'rganib, tekshiruvlar o'tkazilib, aybdorlarga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda jazo choralari ko'rilishi tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, safimizni bunday xodimlardan tozalash va ularning o'rnini vatanparvar, xalq osoyishtaligi yo'lida halol xizmat qiladigan, sadoqatli, o'z bilimlarini doimiy ravishda oshirib boradigan, kasbiy va jangovar tayyorgarligi yuqori bo'lgan kadrlar bilan to'ldirish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Ma'lumki, ichki ishlar organlarida asosan xizmatga qabul qilish vakolatiga ega rahbarlar tomonidan shaxsiy tarkib bo'yicha buyruqlar chiqariladi. Bu buyruqlar bilan xodimlarni (shuningdek tinglovchi va kursantlarni ham tegishliligi bo'yicha) lavozimga tayinlash yoki ozod etish, boshqa lavozimga tayinlash, o'qishga yuborish, xizmatdan bo'shatish, unvonlar berish, rag'batlantirish, jazolash va boshqa huquqiy mustahkamlanadi. Garchi, ushbu shaxsiy tarkib bo'yicha buyruqlar bilan erkin yollangan ishchi va xizmatchilarning mehnat munosabatlari ham rasmiylashtirilsa-da, biroq, ichki ishlar organlarida faoliyat yuritayotganlarning asosiy qismini shahodatlangan maxsus (harbiy) unvonga ega fuqarolar tashkil qiladi. IIV tizimidagi ta'lim muassasalarida doimiy va o'zgaruvchan shaxsiy tarkibga ajratiladi.

O'tkazilayotgan islohotlarning tub negizi sifatida Prezidentimiz ichki ishlar organlariga intellektual salohiyatli, professional kadrlar tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda[6].

Bugun hayotimizning barcha jabhalariga yangi texnologiyalar kirib kelmoqda va bu xodimlardan har kuni o'z ustida ishlashni, bilimni oshirishni talab etadi. Albatta, xalq manfaatlari yo'lida xizmat qilayotgan har bir xodim, avvalo, o'z bilimi, ma'naviy-axloqiy sifatleri va dunyoqarashi kengligi bilan ajralib turishi kerak.

Biroq afsuski, shuni ham tan olib aytish kerak, islohotlar sur'atiga va yangicha ish uslubiga moslasha olmayotgan, hamon eskicha fikrlaydigan xodimlar ham uchrab turibdi. Ayrim xodimlarning noqonuniy xatti-harakatlari odamlarning asosli noroziliklariga ham sabab bo'layotgan holatlar bor. Bunday holatlarning barchasini chuqur o'rganib, tekshiruvlar o'tkazilib, aybdorlarga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda jazo choralari ko'rilishi tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, safimizni bunday xodimlardan tozalash va ularning o'rnini vatanparvar, xalq osoyishtaligi yo'lida halol xizmat qiladigan, sadoqatli kadrlar bilan to'ldirish borasida vazirlik rahbariyati tomonidan tizimli ishlar olib borilmoqda.

Kelgusida xodimlarda kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, ular tomonidan fuqarolarga sifatli, professional xizmat ko'rsatilishini ta'minlash maqsadida, kadrlarni tayyorlash, o'qitish va malaka oshirish borasida ham butunlay yangi tizim asosida ish tashkil etildi.

Ichki ishlar organlari tashkil etilganining 30-yilligi hamda 25 oktyabr – ichki ishlar organlari xodimlari kuni bayrami munosabati bilan muhtaram Prezidentimiz soha xodimlari va faxriylariga yo'llagan bayram tabrigida ichki ishlar organlarida kadrlar tayyorlash yo'nalishiga ham alohida to'xtalib o'tdilar. Jumladan, "mutaxassislar tayyorlashning mutlaqo yangi tizimi yo'lga qo'yilib, xodimlarning malakasiga qarab xizmat bo'yicha o'sishini ta'minlash, shuningdek, rahbarlarning professional salohiyatini oshirish borasida tizimli choralar ko'rilmogda. Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bakalavriat va magistraturani o'z ichiga oladigan ikki bosqichli zamonaviy oliy ta'lim tizimi, o'quv jarayoniga nazariya bilan amaliyot uyg'unligini ta'minlash uchun yangi ta'lim mexanizmlari joriy qilindi".

Shuningdek, ichki ishlar organlari tizimida kadrlar salohiyatini oshirish, yangilikka intiluvchan va zamonaviy fikrlaydigan xodimlarni sohaga tayyorlash maqsadida "Temurbeklar maktabi" va ixtisoslashgan maktab-internat hamda barcha hududlarda akademik litseylar ish boshladi. Hozirgi zamon talabidan kelib chiqqan holda, xavfsiz turizmni ta'minlash, probatsiya, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishga ixtisoslashgan yangi bo'linmalar faoliyati yo'lga qo'yildi va bu sohalarga malakali yetuk xodimlarni tayyorlash bugungi kunda asosiy vazifalardan biridir.

Natija. Davlatimiz rahbari tomonidan berilgan e'tibor samarasida ta'lim sohasida juda ko'p ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Qator xorij mamlakatlari bilan ilmiy tajriba almashilib, **40 ga** yaqin davlatlar ishtirokida muvofiqlashtiruvchi kengashlar tuzildi, ikki tomonlama hamkorlik o'rnatildi. Bugungi kunda xodimlarni o'qitish sohasida hamkorlikni mustahkamlash yo'lida jahonning **29 ta** davlatining huquq-tartibot idoralari bilan ikki tomonlama xalqaro kelishuvlarga muvofiq amaliy ishlar olib borilmoqda.

Ichki ishlar organlari tomonidan fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi bo'yicha vazifalarni sifatli amalga oshirish uchun ichki ishlar organlarida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va doimiy ravishda ularning malakasini oshirib borish jarayonlari muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun ham ichki ishlar organlarida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish borasidagi islohotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi "Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5076-son qarori bilan amalga oshirilgan institutsional o'zgartirishlarda o'z aksini topgan. Jumladan, Akademiyada kadrlarni tayyorlash jarayoniga bakalavriat va magistraturani o'z ichiga oluvchi ikki bosqichli oliy ta'lim tizimi joriy etildi.

Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang'ich, maxsus kasbiy va qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish kurslarida xodimlarni kasbiy darajasi va malakasini oshirilishi: birinchidan, xodimlarning kasbiy darajasini muntazam oshirish asosida qonunchilik normalari, nazariy, ilmiy va amaliy tadqiqotlar natijalarini, innovatsion texnologiyalar, fan-texnika, shuningdek ichki ishlar organlari sohasidagi so'nggi yutuqlarni chuqur o'rganishga; ikkinchidan, yuqori samarali zamonaviy ta'lim va ilg'or xorijiy tajribani keng joriy etgan holda, xodimlarni boshlang'ich, maxsus kasbiy va qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish bo'yicha malaka talablari, o'quv rejalari, dastur va uslublarini tubdan yangilashga; uchinchidan, xodimlarni boshlang'ich, maxsus kasbiy va qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi.

Jamiyatimiz hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar sharoitida ichki ishlar organlariga yuklatilgan vazifalarni hal qilish uchun soha xodimlari nafaqat huquqshunoslik sohasi mutaxassislari, balki turli xil ekstremal vaziyatlarda ham samarali harakat qilishlari kerak. Buning uchun kasbiy tayyorgarlik tizimini, xususan uning asosiy elementlarini tashkil etuvchi xizmat, jangovar, jismoniy, maxsus-taktik, axloqiy-psixologik va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlikni takomillashtirish kerak.

Kasbiy tayyorgarlik obyekt sifatida yaxlitlik, yo'naltirilganlik, strukturalilik, o'zaro bog'liqlik, tizimning iyerarxiyasi, har bir tizimning tavsiflari ko'pligi va boshqa tamoyillarga asoslangan tizim shaklida ko'rib chiqilishi kerak. Ichki ishlar organlarining turli xizmatlari xodimlarining kasbiy tayyorgarligini tizim sifatida ko'rib chiqishda uning asosiy tarkibiy elementlarini va ular o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash mumkin, bu esa ushbu faoliyatni yanada samarali tashkil etish va ijobiy natijalarga erishishga imkon beradi.

Ichki ishlar organlarida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularga quyidagi vazifalarni kiritishimiz mumkin[7]:

– xodimlarni, shu jumladan ularni xizmat faoliyatidan ajratmagan holda o'qitish va maxsus kasbiy tayyorlash, majburiy qayta tayyorlash va doimiy malakasini oshirib borishning ichki ishlar organlari kadrlar salohiyatini oshirishga imkon beradigan sifat jihatdan yangi tizimini tashkil etish;

– yoshlarda ichki ishlar organlari xodimlari uchun zarur bo'lgan dastlabki kasbiy bilim, yuksak vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishni nazarda tutadigan idoraviy oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maqsadli tayyorlash bo'yicha samarali tartibni joriy etish;

– asosiy qismi sohaviy fanlarni o'qitishdan tarkib topgan, shuningdek hududiy ichki ishlar organlariga bevosita chiqishni va tergov-tezkor tadbirlarni o'tkazishda ishtirok etishni nazarda tutgan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishni o'z ichiga olgan yangilangan ta'lim standartlar va o'quv dasturlarni ishlab chiqish va kiritish;

– ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilar tarkibini malakali ilmiy-pedagogik, birinchi navbatda sohaviy fanlarni o'qitishga ixtisoslashgan kadrlar bilan jamlash, nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan mutaxassislarni o'quv jarayoniga keng jalb etish;

– o'qitishning zamonaviy shakl va usullarini, eng yangi pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni, shu jumladan situatsion mashg'ulotlarni, masofadan o'qitish tizimini keng joriy etish, ta'lim oluvchilar va o'qituvchilarni global axborot-huquqiy va ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyat-larini ta'minlash;

– idoraviy ta'lim muassasalarida o'qitish yo'nalishlari va mutaxassisliklarini amaliyot ehtiyojini hamda ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi faoliyatini takomillashtirish istiqbollari inobatga olgan holda tizimli ravishda maqbullashtirish;

– ichki ishlar organlari faoliyatida, birinchi navbatda huquqbuzarliklar profilaktikasi, tezkor-qidiruv faoliyati va jinoyatlarni tergov qilish sohasida mavjud bo'lgan muammolar bo'yicha fundamental va amaliyotga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar o'tkazilishi samaradorligini oshirish;

– yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari bilan kadrlar tayyorlash bo'yicha tajriba almashish, hamkorlikdagi ta'lim dasturlarini joriy etish, professor-o'qituvchilar tarkibini, xorijiy tillarni o'qitishni nazarda tutgan holda, malakasini oshirish va stajirovkadan o'tkazish orqali xalqaro hamkorlikni rivojlantirish[8].

Ichki ishlar organlari uchun kadrlar tayyorlash ko'p bosqichli tizimni nazarda tutadi. Dastlab kasbiy bilim va ko'nikmalar IIVning akademik litseylari hamda ixtisoslashtirilgan harbiy litseylarda 2-yil o'qish davomida, so'ngra IIV oliy o'quv yurtida tegishli mutaxassisliklar bo'yicha 3 yil o'qish davomida egallanadi. Shuningdek, ichki ishlar organlarining rahbar kadrlarini tayyorlash bo'yicha ikki yo'nalishdan iborat bir yillik ta'lim muddatini o'z ichiga oluvchi magistraturada ham ta'lim olish yo'lga qo'yilgan. Ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanish istagida bo'lganlar yana uch yil davomida doktoranturada o'qishni davom ettirishlari mumkin.

Yoshlarda ichki ishlar organlari xodimlari uchun zarur bo'lgan dastlabki kasbiy bilim, yuksak vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish maqsadida Ichki ishlar vazirligining barcha viloyatlar, Toshkent shahar va Qoraqalpog'iston Respublikasida akademik

litseylari tashkil etildi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki mazkur akademik litseylarning tashkil etilishi[3]:

birinchidan, ichki ishlar organlari xodimlari uchun zarur bo'lgan yuksak vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga, dastlabki kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega aqlan va jismonan yetuk yoshlarni tarbiyalashga;

ikkinchidan, o'quvchilarni Ichki ishlar vazirligining oliy ta'lim muassasalariga kirishlari uchun maqsadli chuqur tayyorlashga xizmat qiladi.

Ichki ishlar vazirligining idoraviy akademik litseylariga qabul ichki ishlar vaziri tomonidan ichki ishlar organlarining ehtiyojini inobatga olgan holda belgilanadigan kvotalar bo'yicha tanlov asosida amalga oshiriladi. Bu borada shunisi ahamiyatliki, 2021/2022 o'quv yilidan boshlab IIV Akademiyasining bakalavriat dasturi bo'yicha kunduzgi ta'lim shakliga qabul kvotasining 90 foizi bo'yicha qabul faqat idoraviy akademik litseylar, harbiy akademik litseylar bitiruvchilari, ichki ishlar organlari xodimlari, shuningdek, profilaktika (katta) inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchilari orasidan amalga oshiriladi[9].

Yuqorida keltirilgan idoraviy akademik litseylarning o'ziga xos muhim jihatlarida biri IIV Akademiyasi yoki boshqa oliy ta'lim muassasalariga o'qishga topshirib kira olmagan litsey bitiruvchilari amaldagi normativ hujjatlarga asosan ichki ishlar vaziri tomonidan belgilanadigan tartibda ustunlik asosida ichki ishlar organlari xizmatiga qabul qilinadi.

Shu bilan birgalikda, ichki ishlar organlarini bugungi kun talablariga javob beradigan malakali kadrlar bilan jamlash borasidagi ehtiyojlarni inobatga olgan holda, Akademiyada sirtqi ta'lim fakulteti tashkil etildi. Unda kamida uch yillik ish stajiga ega bo'lgan ichki ishlar organlari xodimlarining oliy ma'lumotga ega bo'lmaganlari to'rt yil, oliy ma'lumotga ega bo'lganlari esa uch yil to'lov-kontrakt asosida tasdiqlangan o'quv dastur va standartlar asosida o'qiydi hamda bitiruvchilarga «Huquqbuzarliklarning oldini olish va ularni fosh etish faoliyati» mutaxassisligi bo'yicha «yurist» malakasi beriladi.

Ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlardan yana biri, bu O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-oktyabrdagi "Oliy harbiylashtirilgan ta'lim muassasalari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi" 655-son qarori bilan IIV Akademiyasi oliy harbiylashtirilgan ta'lim muassasalari qatoriga kiritilganligidir.

Hujjatga ko'ra, oliy harbiylashtirilgan ta'lim muassasalari — xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida ta'lim oluvchilarni ixtisoslik (mutaxassislik) fanlariga kasbiy yo'naltirish hamda maqsadli tayyorlashni nazarda tutadigan, davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalari va dasturlari talablariga muvofiq ravishda o'quv-tarbiya jarayonini amalga oshiradigan oliy ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalaridir.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurash yo'nalishlaridan biri davlat organlari faoliyatiga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish hisoblanadi. Axborot texnologiyalardan foydalanishni "elektron davlat" atamasi birlashtiradi, bu esa, o'z navbatida, "elektron hukumat", elektron parlament, "elektron adliya" kabi tushunchalarni qamrab oladi. Elektron hukumat yo'nalishida Ichki ishlar organlari tomonidan 72 ta davlat xizmatlari ko'rsatilishi belgilandi, fuqarolar bilan bevosita muloqotda xizmat faoliyatini olib borayotgan ichki ishlar organlari xodimlari bodi-kamera, videoradar va ma'muriy huquqbuzarliklarni qayd etuvchi planshetlar bilan ham ta'minlandi.

Aholi tomonidan ichki ishlar organlarining faoliyati ko'pincha xalq bilan bevosita ishlaydigan xizmatlar orqali (YPX, PPX va JTS, HP) baholanadi va aholi tomonidan berilgan baho ko'pincha subyektiv xususiyatga ega bo'ladi.

Ichki ishlar organlarining xalq bilan bevosita ishlaydigan tegishli sohaviy xizmatlarining (YPX, PPX va JTS, HP) ayrim xodimlari muomala va kasb madaniyatiga yetarli darajada ega bo'lmaganligi, fuqarolar bilan yuzaga kelgan turli xil vaziyatlarni to'g'ri baholay olmasligi yoki muloqot jarayonida yuzaga kelgan kuchli hissiyot (emotsiya), hayajonini boshqara olmasligi natijasida ular tomonidan noto'g'ri qarorlar qabul qilinishi holatlari ham uchrab turmoqda. Bu esa aholining haqli e'tiroziga, qolaversa, ularning ongida ichki ishlar organlari tizimiga nisbatan salbiy fikrlarni shakllanishiga olib kelmoqda.

Fikrimizcha, ichki ishlar organlarining birinchi navbatda xalq bilan bevosita ishlaydigan xizmatlaridagi xodimlarining yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni to'g'ri baholashi va to'g'ri qaror qabul qilishiga yordam beruvchi harakatlar standartini tajribali psixolog mutaxassislarni jalb etgan holda o'qitish, bu bilan bog'liq o'quv kurslarini ko'paytirib borish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Bundan tashqari, xizmat vaqtida fuqarolar bilan muloqotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday vaziyatlarni to'g'ri baholash va to'g'ri qaror qabul qilishga doir ko'nikmalarni shakllantirib borishga avvalo kadrlarni tayyorlash bosqichi jarayonidan alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Masalan, Amerika qo'shma shtatlarida (AQSH) politsiyaga qabul qilingan xodim dastlabki tayyorlov bosqichida o'qitiladi, ushbu bosqichda ularda fuqarolar bilan xizmat yuzasidan muloqot qilish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli xil vaziyatlarda (ekstremal vaziyatlarda ham) to'g'ri qaror qabul qilishga doir o'quv trening mashg'ulotlari o'tkazilishi orqali amaliy ko'nikmalar shakllantiriladi.

Fikrimizcha, ichki ishlar organlarida xizmatga nomzodlarni tanlab olish tadbirlarini o'tkazishda dastlab nomzodlar o'rganilishi, keyin tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, sog'lom yoki nosog'lom ekanligi aniqlashtirilishi, so'ng nomzodlarning bilimi va jismoniy tayyorgarlik darajasi tekshirilishi mantiqan to'g'ri bo'ladi deb o'ylaymiz. Agarda nomzod tibbiy ko'rik natijalariga ko'ra, xizmatga yaroqsiz deb topiladigan bo'lsa, nomzod keyingi bosqichlarda ishtirok etmaydi, nomzodning vaqti ham, qilishi mumkin bo'lgan moddiy xarajatlari ham tejaladi, qolaversa, qabul komissiyasining ham vaqti tejaladi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2023 yil 2 noyabrdagi 601-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Ichki ishlar organlarida xizmatga nomzodlarni tanlab olish tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnomaning 2-bobi, 14-bandini qo'yidagi tahrirda bayon etish tavsiya etiladi:

"14. Tanlov tadbirlari quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi

a) o'rganish bosqichi:

ro'yxatdan o'tish;

dastlabki o'rganish (Nizom va mazkur Yo'riqnomada belgilangan talablarga mos kelishni tekshirish);

b) saralash bosqichi:

xizmatga yaroqlilik darajasini aniqlash maqsadida harbiy-tibbiy komissiya ko'rigidan o'tkazish;

psixofiziologik (poligraf) tekshiruv (ichki ishlar organlarida xizmat qilish uchun to'sqinlik qiladigan salbiy omillarni aniqlash maqsadida).

intellektual rivojlanganlik darajasi va psixoemotsional barqarorligini baholash (bundan buyon matnda psixologik o'rganish deb yuritiladi);

test sinovi (O'zbekistonning eng yangi tarixi, huquqshunoslik va tarbiya fanlari bo'yicha bilimlarni baholash);

jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash.

Bugungi kunda O'zbekistonda erkaklarning o'rtacha bo'y balandligi 169,4 sm., ayollarning o'rtacha bo'y balandligi 157,8 sm. ni tashkil etadi. O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, erkaklarning o'rtacha bo'y balandligi 175 santimetrdan 188 santimetrgacha, ayollarning o'rtacha bo'y balandligi esa 165 santimetrdan 173 santimetrgacha bo'lishi eng ideal holat deb topilgan.

Fikrimizcha, yuqoridagi tahlillardan va O'zbekistonda erkaklarning o'rtacha bo'y balandligini va bo'yning ko'rkamroq ko'rinishini hisobga olib, ichki ishlar organlariga ham xizmatga qabul qilinayotgan erkak jinsidagi nomzodning minimal bo'y balandligi 170 santimetrdan past bo'lmasligi kerakligi haqida xulosa qilish mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olib, mazkur yo'riqnomaning 1-bobi, 5-bandi ikkinchi xatboshisini qo'yidagi tahrirda bayon etish tavsiya etiladi: "erkak jinsidagi nomzodlarning bo'yi – 170 santimetrdan past bo'lmasligi kerak".

Yo'riqnomaning 5-bobi 31-bandida "Nomzodlar bilan test sinovlari yakka tartibda yoki guruh bo'lib o'tkazilishi mumkin. Test guruh tarkibida o'tkazilganda, xonada nomzodlar soni 30 nafardan oshmasligi zarur"ligi belgilangan.

Fikrimizcha, nomzodlar test sinovlarini yakka tartibda emas, balki guruh bo'lib topshirgani maqsadga muvofiq. Bu esa xalqning qabul komissiyasiga nisbatan har-xil shubha va gumonlarini yo'qolishiga olib kelishi bilan birga, sinov imtihonlari ochiq va shaffof tarzda o'tishini ham kafolatlashga xizmat qiladi. Shu bois, ushbu yo'riqnomaning 5-bobi 31-bandidagi "Nomzodlar bilan test sinovlari" degan so'zlardan keyin "yakka tartibda yoki" degan so'zlarni chiqarib tashlash va ushbu bandni quyidagi tahrirda bayon etish tavsiya etiladi:

"31. Nomzodlar bilan test sinovlari guruh tarkibida o'tkazilishi va bunda test sinovlari o'tkazilayotgan xonadagi nomzodlar soni 30 nafardan oshmasligi zarur".

Yo'riqnomaning 6-bobi 46-bandida "Qaydnoma Qabul komissiyasining har bir a'zosi tomonidan imzolanib, tasdiqlash uchun komissiya raisiga taqdim etiladi hamda tegishli ichki ishlar organlari tomonidan test sinovlari natijalari Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan taqdim etilgan kundan boshlab, ikki ish kuni ichida veb-saytga joylashtirish orqali nomzodlarga ma'lum qilinadi" deya belgilangan.

Fikrimizcha, test sinovlari natijalari Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan taqdim etilgan kundan boshlab, ikki ish kuni ichida emas, balki 1 ish kuni mobaynida veb-saytga joylashtirilishi korrupsiyaviy omillarning oldini olishga va qabul komissiyasiga nisbatan salbiy fikrlarning kelib chiqmasligiga sabab bo'ladi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, mazkur yo'riqnomaning 6-bobi 46-bandidagi "ikki ish kuni" jumalarni "bir ish kuni" deya o'zgartirish tavsiya etiladi.

Xulosa. Shuningdek, ichki ishlar organlarida xizmatga va ta'lim muassasalariga o'qishga nomzodlarni tanlash, tayyorlash va joy-joyiga qo'yish hamda kadrlar barqarorligini ta'minlash borasida quyidagilar taklif etiladi:

– ichki ishlar organlariga ishga (xizmatga) yoki ta'lim muassasasiga o'qishga kirmoqchi bo'lgan nomzodlarni avvalo sog'lom, namunali va ijobiy tavsiflangan oilalar orasidan, kerak

bo'lsa bog'cha va o'rta ta'lim maktablaridan izlash va ularni (ota-onalari bilan kelishgan holda) yoshligidan boshlab tizimli tarzda vatanparvarlik ruhida tarbiyalab borish maqsadga muvofiq, bu esa tizimga tasodifiy xodimlarning kirib qolishini oldini olishga ma'lum bir darajada xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // 08.12.1992 y. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 09.02.2021 y., 03/21/671/0093-son.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni. 16.09.2016 y. O'RQ-407-son.
3. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabr "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407-son Qonuni / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 38 (746)-son, 2016-yil 26-sentyabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ichki ishlar organlarining 30-yilligi munosabati bilan soha xodimlari va faxriylarini tabrikladi // 24.10.2021 y. (Manba: <https://daryo.uz/k/2021/10/24/shavkat-mirziyoyev-ichki-ishlar-organlarining-30-yilligi-munosabati-bilan-soha-xodimlari-va-faxriylarini-tabrikladi/>)
5. Bobojonov P.R. Tanqidiy tahlil va ustuvor vazifalar faoliyat samaradorligiga xizmat qiladi // "Yangi O'zbekiston" ijtimoiy-siyosiy gazetasi, 16.02.2021y., № 33.
6. Bobojonov P.R. Tanqidiy tahlil va ustuvor vazifalar faoliyat samaradorligiga xizmat qiladi // "Yangi O'zbekiston" ijtimoiy-siyosiy gazetasi, 16.02.2021y., № 33.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi "Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3216-son qarori // *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 01.12.2021 y., 06/21/27/1116-son.
8. Okyulov N.O. Reformirovaniye sistemi podgotovki kadrov v obrazovatel'nykh uchrejdeniyax i novye tendentsii kadrovoy politiki MVD Respubliki Uzbekistan // *Agrarnoye i zemelnoye pravo*. – 2019. – № 12(180). – S. 164-166.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi "Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3216-son qarori // *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 01.12.2021 y., 06/21/27/1116-son.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-27-sonli farmoni // *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 01.12.2021 y., 06/21/27/1116-son.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).